



TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY- IQTOSODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Muxiddinova Kamola Sagdullayevna

*International school of financial technologies
and science institute, Menejment kafedra
o‘qituvchisi*

E-mail: kamola9826@mail.ru

Muxiddinov Djaxongir Murodulloevich

*O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya
Akademiyasi, Davlat moliyasi va xalqaro
moliya yo‘nalishi magistranti (MSc)*

E-mail: jahon.888@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining strategik vazifalari asosida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish maqsadlari tahlil qilinadi. Maqolada sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi, mayjud muammolar va ularni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimi, boshqaruv mexanizmini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish va mamlakat iqtisodiy o‘sishini rag‘batlantirish uchun yo‘nalishlarni belgilashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, rivojlanish strategiyasi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, innovatsion texnologiyalar, eksport salohiyati, sanoat modernizatsiyasi, kadrlar tayyorlash, boshqaruv tizimi, xalqaro standartlar, barqaror rivojlanish.

Kirish

Hozirgi kunda mamlakatimiz uchun eng muhim masalalardan biri sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish orqali ishlab chiqarishni va aholining sanoat mahsulotlariga oshib borayotgan talabini qondirishdir. Ushbu sanoat mahsulotlari yordamida ichki bozorni to‘ldirish va eksportni amalga oshirish orqali mamlakatning valyuta zaxiralarini mustahkamlashga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minalash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish; sanoatning yetakchi tarmoqlarini va iqtisodiyotni liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash; sanoat tarmoqlarida mehnat unumдорligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish; ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik



va texnologik jihatdan yangilash; ishlab chiqarish loyihamini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish; yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqr qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish orqali sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, technoparklar va kichik sanoat zonalarining samaradorligini oshirish hamda yangi tashabbuslarni tashkil etish vazifalari belgilangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sanoatning muhim tarmoqlaridan biri - to'qimachilik sanoatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "to'qimachilik, charm-poyabzal, farmasevtika, elektrotexnika, kimyo va neft-kimyo, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoatlari va boshqa ko'plab sohalardagi qayta ishlash darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga va eksportning yillik hajmini salkam 20 milliard dollarga yetkazishga muvaffaq bo'ldik".

Shu sababli, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida to'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini chuqr o'rGANISH va bu borada tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. 2022-yilda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 4424,1 milliard so'mni tashkil etdi, bu 2018-yilga nisbatan 153,9% ga oshganini ko'rsatadi. Sanoatning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi muhim, ammo tarmoqda bir qator muammolar mavjud: eskirgan texnologiyalar, past ishlab chiqarish samaradorligi va xalqaro standartlarga javob beradigan sifat nazorati tizimlarining yetarli emasligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldag'i qarorida to'qimachilik sanoatini isloh qilish va uning eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Masalan, 2021-yilga kelib to'qimachilik mahsulotlari eksporti 3,3 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa 2018-yilga nisbatan 180% ga oshgan. Biroq, hali ham yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda muammolar mavjud.

Ushbu maqolada to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari chuqr tahlil qilinadi. Maqsad - to'qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. 2025-yilgacha to'qimachilik mahsulotlari eksportini 7 milliard dollarga yetkazish rejalari ham



mavjud. Bu orqali mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shish va sanoatning raqobatbardoshligini kuchaytirish ko'zda tutiladi.

Adabiyotlar tahlili

To'qimachilik sanoatini rivojlantirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari O'zbekiston va chet el olimlari tomonidan keng o'r ganilgan. Ushbu tadqiqotlar tarmoqning barqaror rivojlanishi, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuvi uchun zaruriy chora-tadbirlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Abduqodirov, A. (2021). "O'zbekiston to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish". Ushbu ishda muallif tarmoqning eksport salohiyatini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. 2018-2020 yillar davomida tarmoqdagi ishlab chiqarishning 153,9% ga oshishi bu yo'nalishdagi ijobiy natijalar sifatida ko'rsatilgan [1].

Xusniddinov, R. (2020). "To'qimachilik sanoatida investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati". U tarmoqda mavjud investitsion muammolarni va ularni hal qilish yo'llarini tahlil qiladi. Muallif, shuningdek, O'zbekistonning ichki va tashqi manbalarini samarali ishlatish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga urg'u beradi [2].

Smith, J. (2019). "Global Textile Industry Trends and Challenges". Ushbu tadqiqotda muallif global bozor tendentsiyalarini tahlil qilib, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining jahon iqtisodiyotidagi o'rni va raqobatbardoshligini oshirish uchun qanday strategiyalarni qo'llash kerakligini belgilaydi [3].

Li, Y. & Wang, T. (2020). "Sustainable Practices in Textile Manufacturing". Chet el tadqiqotchilari to'qimachilik sanoatida barqaror amaliyotlar va innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini o'r ganadilar. Ular O'zbekistonda ushbu amaliyotlarni joriy etish orqali sanoatning ekologik va iqtisodiy barqarorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadilar [4].

2017-yil PF-5285-sonli Farmon va 2019-yil PQ-4186-sonli qaror. Ushbu hujjatlar tarmoqni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilaydi va O'zbekiston to'qimachilik sanoatini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlanishiga qaratilgan asosiy strategiyalarni o'z ichiga oladi [5].

Belyaeva, N. (2021). "Textile Quality Standards and Innovations". Bu ishda muallif O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari sifatini oshirish uchun xalqaro standartlarni joriy etish va sinov laboratoriylarini modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi [6].

Tadqiqot usullari



Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari quyidagi usullar orqali o‘rganildi:

To‘qimachilik sanoatining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish uchun statistik ma’lumotlar va grafiklar asosida analitik usul qo‘llanildi. Bu usul orqali tarmoqning o‘sish sur’atlari, ishlab chiqarish hajmlari, eksport ko‘rsatkichlari va boshqa iqtisodiy parametrlar o‘rganildi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida mavjud raqamli ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish uchun kvantitativ tahlil usuli qo‘llanildi. Bu usul statistika, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va bozor tendentsiyalarini o‘lchashda yordam berdi.

To‘qimachilik sanoati rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini baholash uchun kasalogik tahlil usuli ishlatildi. Bu usul orqali muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Tarmoqdagi muammolarni hal etish va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish maqsadida iqtisodiy modellardan foydalanildi. Bu modellarda soliq tizimi, investitsiyalarni jalg qilish mexanizmlari va boshqa iqtisodiy parametrlar o‘z ichiga olindi.

Tarmoq mutaxassislari va korxonalar rahbarlari bilan intervylular o‘tkazildi. Ular orqali to‘qimachilik sanoati muammolari, mavjud holatlar va istiqbolli yo‘nalishlar haqidagi fikrlar yig‘ildi.

Mavzuga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar va davlat hujjalari tahlil qilindi. Bu usul orqali ilgari olib borilgan tadqiqotlar natijalari va tavsiyalari o‘rganildi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida muvaffaqiyatli tadqiqotlar olib borgan korxonalar va loyiha misollari asosida case study usuli qo‘llanildi. Bu usul orqali amaliyotdan olingan saboqlar tahlil qilindi.

Ushbu tadqiqot usullari to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini mukammal tushunishga, muammolarni aniqlashga va ularni hal etish bo‘yicha samarali takliflar ishlab chiqishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar

Respublikamiz iqtisodiy rivojlanishida to‘qimachilik sanoatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda, to‘qimachilik sanoati sanoat yalpi mahsulotining 14,9 foizini tashkil etmoqda (1-jadval). Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2018-2022 yillar mobaynida o‘tgan davrga nisbatan to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishining o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari 10,3 foizni ko‘rsatmoqda. Umumiy ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish ulushi 14,5 dan 14,9 foizgacha oshgan.



2018-2022 yillar davomida to‘qimachilik, kiyim va teri mahsulotlarini natura ko‘rinishida ishlab chiqarishda ip-kalava 54,8 foiz, gazlamalar 10,7 foiz, trikotaj mahsulotlari 57,3 foiz, tikuv mahsulotlari 53,9 foiz, chulki-paypoq mahsulotlari 76,2 foiz va gilam hamda gilam mahsulotlari 33,2 foizga o‘sishi ijobiy natija sifatida ko‘riladi.

1-jadval

Respublikada to‘qimachilik sanoatini rivojlanish dinamikasi

Qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari	O‘Ichov birligi	2018	2019	2020	2021	2022	2022-yil. 2018-yil.ganisbatan, % da
To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi, o‘tgan yilga nisbatan foizda	%	105,4	104,9	13,8	18,8	108,8	+3,4 f.p.
To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishni sanoat mahsu-lotidagi ulushi	%	14,5	12,6	13,2	14,9	14,9	+0,4 f.p.
To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini natura ko‘rinishida ishlab chiqarish							
Ip-kalava	ming t.	427,9	528,6	614,8	789,0	662,3	154,8
Gazlamalar	mln. m ²	533,3	470,4	607,8	590,8	590,4	110,7
Trikotaj mahsulotlari	mln dona	319,7	266,1	286,0	481,3	455,6	253,2
Trikotaj polotnosti	ming t.	60,5	54,1	97,3	75,1	95,2	157,3
Tikuv mahsulotlari	mlrd so‘m	2873,8	3216,8	4080,9	4679,8	4424,1	153,9
Chulki-paypoq mahsulotlari	mln. juft	117,0	126,4	155,0	219,8	206,2	176,2
Poyabzal	mln. juft	12,7	21,6	27,6	26,5	24,0	189,0
Gilam va gilam mahsulotlari	mln m ²	45,1	43,9	54,4	66,3	60,1	133,2

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4186-sonli qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujatlarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivoj- lantirishga oid chora-tadbirlari belgilangan:



- *Birinchidan*, to‘qimachilik sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, mamlakatda ishlab chiqa- rilayotgan to‘qimachilik mahsulotlarining, eng avvalo, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh to‘qimachilik mahsulotlarini yuqori texnologik ishlab chiqarishga qayta yo‘naltirish orqali hajmi va sifatini oshirish;
- *Ikkinchidan*, to‘qimachilik sanoatining boshqaruv tizimini ilg‘or menejment texnologiyalari, tarmoq kor- xonalariga har tomonlama ko‘maklashish va qo‘llab-quvvatlashning, shu jumladan ularning rivojla- nishiga to‘sinqinlik qiluvchi muammolarni hal etishda samarali shakllarini joriy etgan holda tubdan qayta ko‘rib chiqish;
- *Uchinchidan*, to‘qimachilik sanoati sohasidagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini xalqaro talab va standartlarga uyg‘unlashtirish, shuningdek, mahsulotlar sinov laboratoriylarini modernizatsiya qilish va akkreditatsiyadan o‘tkazish orqali yanada takomillashtirish;
- *To‘rtinchidan*, tarmoqqa to‘qimachilik mahsulotlari mahalliy va xorijiy bozorlarining holati hamda rivoj- lanish tendensiyalari haqidagi ishonchli va o‘z vaqtida axborotlar olishni ta’minalash imkonini beruvchi ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tarmoq rivojlanishining ustuvor yo‘na- lishlarini aniqlash maqsadida uni tizimli va kompleks tahlil qilish;
- *Beshinchidan*, paxta xomashyosini yetishtirishdan boshlab, unga dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor to‘qimachilik mahsuloti chiqarish bosqichigacha bo‘lgan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivoj- lanishning klaster modelini amalga oshirish;
- *Oltinchidan*, xomashyo resurslari taqsimotining mutanosibligi va tashkil etilayotgan tarmoq korxonala- rining logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda, shu jumladan ko‘p funksiyali transport-logistika xablarini qurish, yuklarni yetkazishning optimal yo‘nalishlari hamda yo‘laklarini tanlash, shuningdek, transportda yuk tashish tariflarini optimallashtirish orqali joylashuvini ta’minalash;
- *Yettingchidan*, yuqori sifatli tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportini kengaytirish, milliy brendlarni jahon bozorlariga ilgari surish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or innovat- sion texnologiyalar, nou-xau, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarning zamonaviy namunalarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish;
- *Sakkizinchidan*, talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha yo‘nalishlarni kengaytirgan holda to‘qimachilik sanoati uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash



va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini tarmoqning zamonaviy rivojlanish tenden- siyalarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini, shuningdek, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni faollashtirish.

Mazkur qarorda kompleks yondashuv asosida xomashyoni qayta ishlash, tayyor mahsulotni, shu jum- ladan, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hamda qo'llab-quvvatlash asosida ishlab chiqarish va eksport qilish, to'qimachilik mahsulotlarini sotishning ichki va tashqi bozorlarini tadqiq qilish; ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, qo'shimcha qiymat yaratishning yagona zanjirini tuzish; respublikada ishlab chiqariladigan paxta ip-kalavalarning butun hajmini qayta ishlash hisobiga 2025-yilga borib to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini 7 mlrd. AQSh dollariga yetkazish vazifalari ham belgilab berilgan.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash masalalariga e'tibor hozirgi kunda, ayniqsa, dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash o'z-o'zidan mam- lakanida tovarlar ishlab chiqarish jarayonida foydalilaniladigan barcha turdag'i iqtisodiy resurslarni oqilona ishlatishga asos bo'ladi. Mamlakatimiz zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar orqali nafaqat ichki bozorda, balki raqobat kurashi kuchayib borayotgan jahon bozorlarida o'z o'rmini topishi uchun yagona yo'l bo'lib qoldi. Ayniqsa, mazkur yo'nalishlar orasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi.

Sanoat korxonalarini modernizatsiyalash birinchi navbatda eskirgan texnika vositalari va asbob-uskunalarni foydalanishdan chiqarish hamda ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jiho-zlash, mahalliy resurslar bazasida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bilan uzviy bog'liq. Bu esa tarmoqqa investitsiyalar jalb etish, birinchi navbatda ichki manbalarni yo'naltirish asosida sanoatning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni ko'zda tutadi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati so'nggi yillarda sezilarli o'sishga erishdi, ammo tarmoqning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun bir qator muammolarni hal qilish zarur. Ushbu tahlil natijalari quyidagi yo'nalishlarda to'plangan:



To‘qimachilik sanoatidagi raqobatbardoshlik darajasi oshayotganiga qaramay, bu raqamlar hali ham xalqaro bozorlar bilan solishtirganda pastdir. Misol uchun, 2022-yilda O‘zbekistonning to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 3,5 milliard dollarni tashkil etdi, bu esa 2018-yilga nisbatan 150% o‘sishni ko‘rsatadi. Biroq, global bozorlar bilan raqobatlashish uchun, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zarur. Hozirgi kunda ishlab chiqarish quvvatlarining 60% dan ortig‘i eskirgan uskunalar bilan ishlamoqda, bu esa rentabellikni pasaytiradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etmaslik va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish darajasining pastligi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni cheklaydi.

To‘qimachilik sanoatida xomashyo va resurslarning noqulay taqsimlanishi muhim muammo sifatida qolmoqda. Tahlil natijalariga ko‘ra, paxta xomashyosining 30% dan ortig‘i ishlanmay qolmoqda. Bu esa ishlab chiqarish tannarxining oshishiga olib keladi. Xomashyo yetkazib berish tizimining samaradorligini oshirish, shuningdek, integratsion aloqalarni mustahkamlash zarurati paydo bo‘lmoqda. Mahsulot tayyorlashda qo‘srimcha qiymatni oshirish uchun, yetkazib berish zanjirini rivojlantirish va xomashyo ishlab chiqaruvchilari bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatish lozim.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi past. Tahlil natijalari ko‘rsatmoqda, tarmoq korxonalari orasida zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha malaka va resurslar yetishmaydi. Hozirgi kunda, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish uchun ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish zarur. Bunda, xorijiy tajribalar va texnologiyalarni o‘rganish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

To‘qimachilik sanoatining rivojlanishi uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasi ham muhimdir. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda sohadagi mutaxassislarning 40% dan ko‘prog‘i zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlari bo‘yicha yetarli bilimga ega emas. Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalari bilan hamkorlik o‘rnatish va amaliyotlardan foydalanish zarur. Mutaxassislar malakasini oshirish va yangi texnologiyalarga o‘qitish dasturlari ishlab chiqilishi, shuningdek, talabalarning amaliyot o‘tashlarini korxonalarda tashkil etish orqali sohaning malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish mumkin.

O‘zbekistonning to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilish salohiyatini oshirish uchun xalqaro standartlarga muvofiq mahsulotlar ishlab chiqarish zarur. Hozirgi kunda mahsulot sifatini oshirish va xalqaro bozor talablariga javob berish uchun milliy standartlarni xalqaro talablarga muvofiq yangilash lozim. 2022-yilda



to‘qimachilik mahsulotlari eksportining 60% dan ortig‘i yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar bo‘lgan. Bu ko‘rsatkichni yanada oshirish uchun innovatsion yondashuvlar va marketing strategiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etish va brendlarni tanitishga ko‘proq e’tibor berish kerak.

Yuqoridagi tahlil natijalari O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati sohasida raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarish, innovatsiyalarni joriy etish, malakali kadrlarni tayyorlash va eksport salohiyatini kengaytirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish, uni innovatsion texnologiyalar bilan jihozlash va ichki bozorga mos keladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilganda, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati nafaqat ichki bozorga, balki xalqaro bozorda ham muvaffaqiyatli raqobatlashishi mumkin.

Kelajakda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun davomli investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish, malakali kadrlar tayyorlash va bozor talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish zarur. Bularning barchasi, O‘zbekistonning iqtisodiy barqarorligini oshirish va to‘qimachilik sanoatini global miqyosda tanitish uchun muhimdir.

Xulosa

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati so‘nggi yillarda sezilarli o‘sishga erishdi, ammo uning barqaror rivojlanishi uchun bir qator muammolarni hal qilish zarur. Tahlil natijalari ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasi hali ham pastdir. Eskirgan uskunalar, xomashyo taqsimotidagi noqulayliklar, innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar va malakali kadrlar yetishmasligi to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining ilgari surilgan strategik chora-tadbirlari va davlat dasturlari sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga, mahsulot sifatini yaxshilashga va eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan. Biroq, bu maqsadlarga erishish uchun yanada kompleks yondashuv zarur.

Ushbu takliflar amalga oshirilganda, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati nafaqat ichki bozorga, balki global bozorga muvaffaqiyatli kirib borishi va rivojlanishi mumkin. Bular, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.



- Xomashyo, material va energiya resurslari sarfini kamaytirish yo‘li bilan tannarxni pasaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish.
- Mehnat unumdorligini oshirish evaziga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga erishish.
- Innovatsiyalarni qo‘llash orqali xomashyo resurslarini qayta ishlashni chuqurlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali diversifikatsiyalash.
- Yangi mahsulot turlari va yuqori texnologiyalarni ishlab chiqishni o‘zlashtirish asosida mahalliy tovarlarning tashqi bozordagi raqobatdoshligini oshirish.
- Tarmoq korxonalarida resurs tejovchi va yuqori unumli texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e’tibor qaratish.
- Mahalliy mahsulotlar sotish bozorini o’rganish va ularning mos bozor segmentlaridagi o‘rnini aniqlash bo‘yicha marketing tadqiqotlarini amalga oshirish.
- Soha bo‘yicha xalqaro hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini yaratish.
- Yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va tarmoqni texnik-texnologik modernizatsiyalashga ichki va xorijiy investitsiyalarni davlat tomonidan rag‘batlantirish.
- Tarmoq korxonalarini xomashyo manbalariga yaqin joylashtirish va transport xarajatlarini tejash imkonini beruvchi ilmiy joylashtirish, rejalashtirish va ixtisoslashtirish ishlarini jadallashtirish.
- Klasterni, kooperatsiya va boshqa tuzilmalar orqali xomashyo yetkazib beruvchilar va xomashyoni qayta ishlovchi sanoat korxonalari o‘rtasidagi integratsion aloqalarni mustahkamlash.
- Eskirgan texnika vositalari va asbob-uskunalarini foydalanishdan chiqarish va ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash ishlarini jadallashtirish.
- Ichki va jahon bozorida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar va yarim fabrikalar, jumladan, bo‘ylg‘an ip, mato, ishlov berilgan teri, trikotaj, tikuvchilik, poyabzal va attorlik-charm buyumlari ishlab chiqarish hisobidan to‘qimachilik va charm-poyabzal sanoati tuzilmalarini yanada yaxshilash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov, A. (2021). O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish. *O‘zbekiston iqtisodiyoti va rivojlanishi*, 12(3), 45-58.
2. Xusniddinov, R. (2020). To‘qimachilik sanoatida investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 10(1), 22-34.
3. Smith, J. (2019). Global textile industry trends and challenges. *Journal of Global Economics*, 15(4), 78-92.



4. Li, Y., & Wang, T. (2020). Sustainable practices in textile manufacturing. *Journal of Cleaner Production*, 256, 120-134.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-sonli qarori. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.
6. Belyaeva, N. (2021). Textile quality standards and innovations. *Journal of Textile Research*, 28(2), 112-124.
7. Nematov, F. (2020). "O'zbekiston to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: metodologiya va tajribalar." *Tashkent Economic Review*, 18(2), 55-67.
8. Karimov, J. (2022). "Innovatsion texnologiyalar va to'qimachilik sanoati: kelajak istiqbollari." *Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 15(4), 30-40.
9. Ahrorov, B. (2021). "O'zbekiston to'qimachilik sanoati: muammolar va istiqbollar." *O'zbekiston iqtisodiyoti va siyosati jurnali*, 12(3), 45-58.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrdagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-5285-sonli Farmoni.

